



GLOBAL TA'LIM TENDENSIYALARI SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ro'ziqulov To'ychi Fayzullayevich

*Abu Ali ibn Sino nomidagi 1-son Respublika jamoat salomatligi texnikumi
o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy
madaniyati kafedrasi dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent*

Annotatsiya: Maqolada global ta'lim tendensiyalari sharoitida O'zbekiston Respublikasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Xalqaro ta'lim makonida yuz berayotgan raqamlashtirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, uzluksiz ta'lim va mehnat bozori talablariga moslashuv jarayonlari milliy ta'lim tizimiga ta'siri nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, professional ta'lim, oliy ta'lim va qayta tayyorlash tizimlarining integratsiyasi orqali kadrlar salohiyatini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: global ta'lim, kadrlar salohiyati, kompetensiya, professional ta'lim, mehnat bozori, raqamli ta'lim.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Jahon miqyosida ilmfan, texnologiya va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi inson kapitaliga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bois, ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalarga moslashuvi va kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.



Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Hozirgi davrda global ta'lim rivojida bir qator muhim tendensiyalar shakllangan. Jumladan, raqamli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish, masofaviy va gibridd ta'lim modellari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, hayot davomida ta'lim olish (lifelong learning) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlardan ko'ra amaliy ko'nikma va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ushbu tendensiyalar kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

O'zbekistonda kadrlar salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda professional ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda mehnat bozori ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa yoshlarning bandligini ta'minlash va ularning kasbiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar bandligini to'liq ta'minlash va mehnatga munosib haq to'lash, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmasining



muvozanatlanganligi va rivojlanishiga erishish, ishsizlik darajasini qisqartirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlarini milliy, hududiy va jahon mehnat bozorlarining talablarini inobatga olib ishlab chiqish (takomillashtirish) maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini 42-moddasida "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga egadir" [1] deb belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida, aholini ish bilan ta'minlash davlat siyosatiga taalluqli masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Global ta'lim tajribasini milliy sharoitga moslashtirish jarayonida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, hududiy ehtiyojlari va milliy qadriyatlari hisobga olinishi lozim. Xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish bilan birga, mahalliy mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish kadrlar salohiyatini oshirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Mehnat bozorida faol hamda aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar aholi bandligini ta'minlash, real daromadlarini oshirish, pirovardida hayot darajasini yuksaltirishga mustahkam poydevor yaratadi. Binobarin, aholini ish bilan ta'minlash



mamlakatimizda nafaqat iqtisodiy, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Uning o'z vaqtida hal etilishidan barcha birdek manfaatdordir.

Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Hammamizga ma'lumki, mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim ko'rsatkichi bu bandlikdir. Aholi bandligining ijtimoiy-demografik masalalari har doim ilmiy-sotsiologik, ilmiy-iqtisodiy mavzu tarzida dolzarb bo'lib kelgan. Bu mavzuning tarixiy, genderli, madaniy-psixologik va iqtisodiy-huquqiy jihatlarini bu kunga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki ijtimoiy ziddiyatlarni avj olishi, maishiy muammolarning dolzarblashuvi ishsizlik bilan bog'liq mavzu hisoblanadiki, bunga Yevroittifoqqa a'zo davlatlarni misol keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasini "Aholi bandligi to'g'risida"gi[2] qonunining 5-moddasida "Aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari" alohida belgilab qo'yilgan. Bular:

➤ mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va mansab mavqeidan, dinga munosabati, e'tiqodidan, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlariga hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardan qat'i nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;



- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab–quvvatlash va rag‘batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta‘minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- ish bilan ta‘minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta‘minlash;
- aholini ish bilan ta‘minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik[3].

Aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmlarini ishlab chiqish mavzusi dolzarb ilmiy sotsiologik va ilmiy iqtisodiy mazmunga ega. Davlatni ravnaqi aholining bandligi bilan, aniqrog‘i ish bilan ta‘minlanganligiga bog‘liq bo‘lib, mehnatning natijasida moddiy va ma‘naviy noz-ne‘matlar bunyod etiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlarining tarixiga nazar salsak, har bir mamlakat ish va bandlik masalasiga doir o‘z nazariy-metodologik yondashuvini, qonunchiligini yaratgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ham mazkur masalaning nazariy-metodologik asosi yaratilgan bo‘lib, A.Begmatov “Ma‘naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi” nomli asarida jamiyatimiz taraqqiyotining asosi hisoblanmish ma‘naviyatni roli, tadqiqot davomida alohida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalarni aniq ko‘rsatib o‘tgan[5].

Yevropa Ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, Finpyandiya dunyoda axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va foydalanish bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Triada tufayli ish joyida ta‘lim olish tizimini rivojlantirish borasida ham ijobiy natijalarga erishildi.

Finlyandiyaning ta‘lim to‘g‘risidagi qonunida (1998 yilda qabul qilingan) uchta asosiy maqsad belgilab qo‘yilgan. Bu – o‘quvchilarga hayotda zarur bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalarni berish, jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ‘ib qilish hamda butun mamlakat bo‘ylab ta‘lim sohasida tenglikni ta‘minlashdan iboratdir. Bular:



Birinchidan, boshlang'ich maktablarga boradigan bolalar bog'cha va maktab- gacha ta'lim tashkilotlarida tayyorgarlikdan o'tishadi. Bolalarning bog'chalardan maktablarga «silliq» o'tishini ta'minlash, adaptatsiyasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar muntazam ravishda olib boriladi. Maktabgacha ta'limni tugatgan bolalar 7 yoshda maktabga kelishadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, fin maktablari jahon ta'lim tizimi reytingida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ma'lumki, «RISA» dasturi doirasida har uch yilda takrorlanuvchi sikllarda o'quvchilarning matematik, tabiiy fanlar va o'qish fanlari savodxonligi baholanganda fin o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha ikkinchi o'rin va matematika bo'yicha beshinchi o'rinni band qilishgan.

Qizig'i shundaki, finlyandiyalik o'quvchilar shunday yuqori natijalarni ko'rsatishiga qaramay, maktabda rekord darajada kam vaqt o'tkazishidir. Kuniga eng ko'pi bilan yarim soat dars qilishsa-da, fin ta'lim uslublari dunyoning eng muvaffaqiyatli ta'lim tizimi sifatida e'tirof etilgan.

Finlardan eng yaxshi maktab qaysi deb so'ralsa, bunga uyga yaqini, degan javobni eshitasiz. Bu yerda «elita» maktablar yo'qligi mamlakat bo'ylab barcha maktablar yagona ta'lim standarti asosida dars mashg'ulotlarini olib borishi va sifati bo'yicha bir xil ekanligidan dalolat beradi. Finlyandiyada «ta'lim kuchaytirilgan» yoki «bo'shroq maktab», degan tushuncha ham yo'q. Hukumat proporsional moliyalashtirishga e'tibor qaratadi, o'quvchilarga bir xil imkoniyat beriladi.

Ikkinchidan, fin maktablarida imtihonlar mavjud emas. Finlarda «O'quvchilarni yo hayotga tayyorlaymiz yoki imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz», degan qarash shakllangan. Barcha fin maktablari hamma imtihonlar, testlar va oraliq nazorat ishlaridan voz kechgan. Hatto maktabni tugatayotganda ham o'quvchilardan imtihon olinmaydi. O'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi. Pedagogdan faqat o'quvchini o'z faniga qiziqtirish talab qilinadi, lekin bolada o'qishga qiziqish bo'lmasa «2» baho bilan qo'rqitilmaydi, aksincha, amaliy jihatdan foydali bo'lgan osonroq kasbga yo'naltirishadi. Shuningdek, maktablarda



ichki diskriminatsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir o‘quvchi uchun individual ta‘lim va rivojlanish rejasi tuziladi!

Qolaversa, ularga alohida mashg‘ulotlar tashkil etish ham taqiqlangan. Shu jihatidan ta‘lim tizimi ijtimoiy yo‘naltirilgan va insonparvarligi bilan ajralib turadi. Barcha maktablar akademik-uslubiy, moddiy-texnik jihatdan teng imkoniyat va sharoitlarga ega. Muhimi, bunday yondashuv barcha maktab o‘quvchilari, pedagog-o‘qituvchilar va ota-onalarga bir xilda maqbul kelishi bilan xarakterlidir.

Aholini ish bilan ta‘minlash masalasi dinamik mazmun kasb etib, uni bir nechta bosqichlarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu mavzu mamlakatimizda, istiqloлга qadar davrda va istiqloл davrida alohida o‘rganib kelinmoqda. Ammo uning sotsiologik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilmaganligi, alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmaganligini ko‘rsatib o‘tamiz. Bandlik nazariyasini evolyusion shakllanish bosqichlari asosan quyidagi iqtisod va sotsiologiya soha fanining olimlari tomonidan nazariy ta‘limot maktablariga bo‘lib o‘rganilgan[9].

Mamlakatimiz uchun ish bilan bandlik muammosi o‘ta dolzarb muammolardan biridir. Chunki har yili mamlakatimizning mehnatga qobiliyatli aholisi 0,5 mln. nafardan ziyodga ko‘paymoqda. Oldingi ishsizlarni ish bilan ta‘minlash va yangi avlodni band qilish uchun juda katta va keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Buning uchun kamida har yili 0,6-0,7 mln. yangi ish o‘rinlarini yaratishni taqozo qiladi. Bu unchalik oson ish emas, albatta.

Tahlil va natijalar doirasida belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalar bajarilgan:

- ✓ aholi bandligini retrospektiv holatini vaqt nuqtai nazaridan tahlil qilish va davrning umumiy konteksti asosida aholini ishsizlar qismida mavjud bo‘lgan ijtimoiy motivlarni bandlik strukturalari bilan aloqadorligi sotsiodinamik tahlil etildi;
- ✓ bandlikka moyillikni ijtimoiy-madaniy omillari aniqlanib, uni darajasini oshirishda bandlikni ta‘minlash strukturalarining tutgan roli belgilanib, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy kabi institutlarning roli belgilandi;



✓ aholi bandligini oshirishning salohiyatli imkoniyatlari ijtimoiy majmua tarzida transformatsiyalashuvi tadqiq etilib, empirik materiallar asosida “Inson – Real ehtiyoj va talab – Ta’lim muassasasi – Ishlab chiqarish – Mehnat bozori – Ekologik muhit – Texnika – Jamoa – Iste’molchi – Ilm–fan – Ijtimoiy amaliyot” konsepsiyasi ishlab chiqildi;

✓ aholi bandligini oshirishning ijtimoiy mexanizmining sotsiologik modeli yaratildi va yaqin davr uchun uni qo‘llashning sotsiologik prognoz amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlashda “Ishlab chiqarish –Ta’lim muassasasi – Mehnat bozori – Kasbga qayta tayyorlash – Ish beruvchi” kabi ijtimoiy jarayonlarni takomillashtirish texnologiyasi yaratildi;

✓ aholi bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va ularni o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishning analitik-sotsiologik usuli ishlab chiqildi hamda aholi bandligini ta’minlashning hududiy xususiyatlari va real muammolari tadqiq etilib, resurslardan manzilli foydalanishning ustuvorligi nazariy jihatdan belgilab olindi;

✓ respublika miqyosida aholi bandligining holati va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilib, bu boradagi mavjud tashkiliy, texnik, boshqaruv va resurslarga taalluqli bo‘lgan muammolar belgilanib, ularni bartaraf etishda funksional va institusional yondashuvlarning afzalliklari milliy manfaatlarni himoyasini amalga oshirish nuqtai nazari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Izoh:

So‘nggi ikki yilda Finlyandiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish uchun qilinayotgan harakatlar natijasi o‘laroq, 2022 yilning 27 may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston – Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo‘yicha 10-yig‘ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta’lim sohasidagi ilg‘or yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy oliy ta’lim tashkiloti – Xalqaro Nordik universitetini ochish bo‘yicha kelishuvga erishildi.



Uning tashkil etilishi Finlyandiya tomonidan O'zbekistonda olib borilayotgan har tomonlama shiddatli islohotlarning e'tirofi, qolaversa, Shimoliy Yevropa davlatlari – Finlyandiya, Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Islandiya hamda boshqa davlatlarning O'zbekistonda va O'rta Osiyoda inson kapitalini rivojlantirish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishish va xalqaro loyihalarda munosib ishtirok etish imkonini beradi.

Ayni chog'da Shimoliy Yevropa mamlakatlarining nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan ilg'or tajribalari, innovatsion ta'lim modellari, o'quv reja va dasturlari asosida iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali oliy ma'lumotli mutaxassislarning yetishib chiqishiga katta hissa qo'shadi.

Shuningdek, iqtidorli talabalar seleksiyasini amalga oshirish, yangi avlod tadbirkorlarining paydo bo'lishi, ularga keng ko'lamda ko'mak berish maqsadida butun dunyo startaperlari, investorlari va tadbirkorlarini bir joyga jam qiladigan «Slush» (Finlyandiyaning Xelsinki shahrida har yili o'tkazilib boriladi) tadbirida yoshlarning o'z innovatsion va startup g'oyalari bilan ishtirok etishlariga ulkan imkoniyat yaratiladi.

Olib borilgan samarali islohotlar natijasida joriy yil boshidan ishsizlik 4,9 foizga tushdi (o'tgan yili 5,5 foiz bo'lgan). Ayniqsa, Buxoro, Kogon, Navoiy, Zarafshon, G'ozg'on, Samarqand, Shirin shaharlarida ishsizlik 4 foizdan pasayib, ilk bor "tabiiy ishsizlik" darajasiga yaqinlashganligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 19-noyabr kuni kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida ham alohida ta'kidlab o'tdilar.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "...Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining



moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi"¹

Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylandi².

Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim tizimini joriy etildi. Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi³.

Hozirgi kunda mamlakatimizda professional ta'lim tizimini takomillashtirish, bitiruvchilar bandligini ish bilan ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans haqida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak" deb ta'kidlaganlar. Uchinchi Uyg'onish davri mamlakatimizning yangi asoslarini belgilab berdi. Bu esa bugungi davr uchun yanada dolzarbdir. Jamiyatimizda

¹ SH.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq), Toshkent, O'zbekiston, 2016, 15-16 betlar

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/8834>



mafkura o'zgarishi, insonning dunyodagi o'rni va yo'li haqidagi tushunchalarni o'zgarib borishiga ham ta'sir qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohalarida milliy va umumbashariy qadriyatlarning o'rni muhimligi, ya'ni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga keng joriy etishga xizmat qiladigan ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga jiddiy e'tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 30.04.2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. - <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. SH.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq), Toshkent, O'zbekiston, 2016, 15-16 betlar
4. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi, O'RQ-642-sonli Qonuni. 20.10.2020 yil
5. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. - T.: Sharq, 2000. - 96 b.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 13.01.1992 y. Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida (yangi tahriri).
7. Thompson P. The Nature of Work: An Introduction to Debates on the Labour Process. L., 1989.-P.125
8. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/05/professional-education/>
9. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi



10. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 28.01.2022 yil